



QASHQADARYO VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI

# QASHQADARYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI

*2023- yilda*



**Madaniyat bu** - inson faoliyati va uning ahamiyatini belgilovchi ramziy vositalar va asarlar yig‘indisidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san’at, me’morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Antropologiyada «madaniyat» atamasi mahsulot va ularning ishlab chiqarilishi, estetik qiymati va shu jarayonlar bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni bildiradi. Bu jihatdan madaniyat san’at, fan va manaviy tizimlarni o‘z ichiga oladi.

**Madaniyat** - bu jamiyat, shaxsnинг ijodiy kuchlari va qobiliyatlari tarixiy rivojlanishining ma’lum darajasi. U kishilar hayoti va faoliyatining turli jabhalarida, ular yaratayotgan moddiy va ma’naviy ne’matlarda namoyon bo‘ladi.

**San’at** ijtimoiy ong va inson faoliyatining o‘ziga xos shaklidir. San’at qadimiy tarixga ega bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida inson faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq holda paydo bo‘la boshlagan.


San’at odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, o‘z taraqqiyotining turli bosqichlarida jamiyat a’zolarini ma’lum bir ruhda tarbiyalash, ularning aqliy va hissiy rivojlanishi, shaxsnинг turli maqsadlari, his-tuyg‘ulari, qiziqishlari va ideallarini ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Estetik tafakkur tarixida san’at go‘zallik qonuniyatlari asosida qandaydir tarzda narsa va hodisalarni aks ettirish va hayotni badiiy tarzda ifodalash g‘oyasiga aylangan.

**Teatr san’ati** azaldan insoniyatning ma’naviy hayotida o‘z o‘rnini egallagan. Ming yillar avval qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy va Qadimgi Yunonistonda teatr dastlab bir, keyin ikki bosqichdan iborat bo‘lib, shundan keyingina jamoaviy san’at turiga aylangan. Spektakl jamoaviy ijod mahsuli bo‘lib, bugungi kunda boshqacha qilib aytganda, rejissyor, dramaturg, aktyor, rassomning ijodiy izlanishlarining mahsulidir. Demak, sahna san’atkorning muttasil ijodkorligini ko‘rsatadi, aktyor zamonaviy san’atga uning ruhi, ijodiy kayfiyati bilan bog‘liq bo‘lgan nimadir qo‘sadi yoki olib tashlaydi.

## QASHQADARYO VILOYATIDAGI MUZEYLAR


Qashqadaryo viloyatida 2023- yilda jami muzeylar soni **8** tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni **5** taga teng. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, **171,1** ming kishidan iborat bo‘lib, ulardan o‘quvchi va talabalar ulushi **52,3 %** ni tashkil etgan.

Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan  
muzeylar soni,  
( tegishli yil uchun birlikda)




Muzeylar sonini hududlar kesimida  
taqsimlanishi,

( 2023- yil uchun, birlikda)



Muzeyga tashrif buyuruvchilar sonini shahar va tumanlar  
kesimida taqsimlanishi ,  
(2023- yil uchun, ming kishi)




# QASHQADARYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI

Bugungi kunda viloyat muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlari mavjud bo'lib, **2023-** yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni **75,5** mingtani tashkil etgan. Muzey eksponatlarining **0,2** mingtasi rassomlik, **0,03** mingtasi grafika, **0,09** mingtasi haykaltaroshlik, **1,0** mingtasi amaliy san'at, **2,0** mingtasi numizmatika, **57,6** mingtasi arxeologiya buyumlari, **4,5** mingtasi suratlar, **2,0** mingtasi hujjatlar, **1,4** mingtasi maishiy va etnografik buyumlar va **6,3** mingtasi boshqa eksponatlardan iborat.

## Muzeylar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, 2023- yil uchun, birlik




## Muzeylardagi asosiy fond eksponatlari soni, 2023- yil uchun, ming birlik




## QASHQADARYO VILOYATIDAGI TEATRLAR

2023- yilda viloyatda jami teatrlar soni **5** tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2010- yilga nisbatan solishtirilganda teatrlar soni 2 taga oshganligini ko‘rsatadi. Teatrlarda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) soni **293** tani tashkil etdi. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni **86,6** ming nafarni tashkil etgan.

**Qashqdaryo viloyatida faoliyat  
yuritayotgan teatrlar soni  
(tegishli yil uchun, birlik)**



**Shahar va tumanlar kesimida  
(2023- yil uchun, birlik)**



**Teatrlarning janrlar bo‘yicha  
taqsimlanishi, birlik**



## QASHQADARYO VILOYATIDAGI TEATRLAR


Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni  
(tegishli yil uchun, ming kishi)



2023- yilda jami teatrlar soni **5** tani tashkil etib, ushuu teatrlarda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) **293**tani tashkil etdi.


Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni **86,6**ming nafarni tashkil etgan.

Teatrlarda namoyish etilgan spektakllar soni  
(tegishli yil uchun, birlik)



Qashqadaryo viloyatida 2023- yilda teatrlar hammasi 100 % o'zbek tilida faoliyat olib borgan.

Teatrlarga tashrif buyurgan tomoshabinlar sonini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi  
(2023- yil uchun, ming kishi)




## QASHQADARYO VILOYATIDA KONSERT TASHKILOTLARI VA SIRK


Qashqadaryo viloyatida 2023- yilda jami faoliyat ko‘rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 3 tani tashkil etgan. Konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 2023- yilda 333 tani tashkil etgan. Shuningdek, tinglovchilar soni jami 71,5 ming nafarni tashkil etdi.

### 2023- yilda konsert tashkilotlari faoliyati


Konsert tashkilotlari soni  
(birlik)



Konsertlar soni  
(birlik)



Xizmat ko‘rsatilgan  
tinglovchilar soni  
(ming kishi)



### 2023- yilda faoliyat turlari bo‘yicha konsert tashkilotlari, birlik


1  
gastrol-konsert

-  
konsert zallari,  
san’at saroylari

2  
filarmoniya

-  
mustaqil  
jamoalar

### Konsert tashkilotlar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi, ( 2023- yil uchun, birlik)




# QASHQADARYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI

## 2023- yilda konsert tashkilotlarining faoliyati faoliyat turlari bo'yicha

	Konsertlar soni, <i>birlik</i>	Ulardan qishloq aholisi uchun, <i>birlik</i>	Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar soni, <i>ming kishi</i>	Ulardan qishloq aholisi uchun, <i>ming kishi</i>
filarmoniya	118	67	40,4	21,6
gastrol-konsert	215	-	31,1	-
mustaqil jamoalar	-	-	-	-
konsert zallari, san'at saroylari	-	-	-	-

Qashqadaryo viloyatida faoliyat turlari bo'yicha filarmoniya ijrosidagi konsertlarda tinglovchilar soni 40,4 ming kishi, gastrol-konsertda tinglovchilar soni 31,1 ming kishini tashkil etgan. Konsertlarda ishtirok etgan tomoshabinlar soni esa 71,5 ming kishini tashkil etgan.

Shtatdagi artist xodimlar soni jami 70 nafarga teng bo'lib, umumiy soniga nisbatan artist ayollar ulushi (19 nafar) 27,1 % ni tashkil etdi.



## QASHQADARYO VILOYATIDA HAYVONOT VA ISTIROHAT BOG'LARI


Qashqadaryo viloyatida 1 ta hayvonot bog'i mavjud bo'lib, u o'z faoliyatini Shahrisabz shahrida olib bormoqda. Shu bilan birga, hayvonot bog'iga 3,4 ming kishi tashrif buyurgan, shundan 2,6 ming nafari bolalardir.

Mamlakatimiz hayvonot bog'laridagi o'simlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligi o'ziga xosligi bilan tashrif buyuruvchilar e'tiborini tortadi. Bu yerda, xususan, hayvonot dunyosini 44 ta turi mavjud. Hayvonot dunyosi namunalari umumiy soni 143 tani tashkil etadi..

**Qashqadaryo viloyatida hayvonot bog'inining maydoni 1,9  
gektarni tashkil etadi.**

### Hayvonot bog'larining hayvonot dunyosi


(2023- yil uchun, turlar)



## QASHQADARYO VILOYATIDA MADANIYAT VA DAM OLİSH ISTIROHAT BOĞ'LARI

2023- yilda viloyarda **7** ta madaniyat va istirohat bog‘lari mavjud bo‘lib, Qarshi shahrida (2) Koson tumanida (1) Nishon (1) Kasbi (1) Chiroqchi (1) Shahrисabz (1) madaniyat va istirohat bog‘lari mavjud.

### Madaniyat va dam olish istirohat bog‘lari 2023- yil uchun, birlik



madaniyat va dam  
olish istirohat bog‘lari

attraksionlar

istirohat bog‘lari umumiyl  
maydoni, ga **47,4**

qatnovlar, ming kishi **197,1**

## Statistik ko'rsatkichlarga izoh

**Madaniyat** — inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliylarda namoyon bo'lishi mumkin.

**Madaniy meros** bu — xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar, joylar, obyektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

**Madaniy meros obyektlari** — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

**Moddiy madaniy meros obyektlari** — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansamblar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

**Nomoddiy madaniy meros obyektlari** — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

**Diqqatga sazovor joylar** — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixiy markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.



Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:  
Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi  
ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Qashqadaryo viloyat statistika  
boshqarmasi



Manzil: Qarshi sh., Mustaqillik  
ko'chasi, 2

tel.: +99875 221-09-71



e-mail: qashstat@inbox.uz



www.qashstat.uz



facebook.com/qashstat.uz